

TURK VA O'ZBEK MAQOLLARINING QIYOSIY TAHLILI

Abdurashidova Sitora Dilshod qizi

*Samarqand Davlat Chet tillari instituti, Sharq tillari fakulteti,
Filologiya va tillarni o'qitish: turk tili yo'nalishi 2-kurs talabasi*

Annotatsiya Ushbu maqolada turk va o'zbek maqollarining o'xshash va farqli tomonlari qiyosiy tahlil qilinadi. Maqollar xalqning o'tmishi, hayoti, urf-odatlari va dunyoqarashini aks ettiruvchi muhim bir janr hisoblanadi. Tadqiqot davomida o'zbek va turk xalqlarida uchraydigan maqollar misoli yordamida tahlil qilinib, ularning lingvistik va madaniy xususiyatlari ochib beriladi. Shuningdek, ikki xalq tafakkuridagi o'ziga xosliklar, tarixiy-madaniy tajribalar va ijtimoiy hayotdagi farqlar maqollarda qanday ifoda topgani haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: xalq og'zaki ijodi, o'zbek tili, turk tili, milliy qadriyatlar, ma'naviyat, donolik, o'zbek maqollari, turk maqollari, o'xshashliklar, farqlar.

Xalq og'zaki ijodi janrlari ichida maqollar alohida o'rinn tutadi. Ular xalqning bir necha asrlar, yillar davomida orttirgan tajribasi, dunyoqarashi, qadriyatları va hayotiy falsafasini mujassam etadi. Maqollar qisqa va lo'nda bo'lsa-da, chuqur ma'noni o'zida jamlagani bilan ajralib turadi. Shu bois maqollar jamiyat tafakkurining ko'zgusi, xalq tafakkurining nodir namunasi hisoblanadi.

O'zbek va turk xalqlari qadimiy ildizga ega turkiy xalqlar sifatida o'zaro yaqinlikka ega. Bu yaqinlik ularning tilida, madaniyatida, urf-odatlarida, va albatta, maqollarida ham namoyon bo'ladi. Ushbu xalqlarning maqollarida hayotiy tajribalar, mehnatsevarlik, do'stlik, halollik, sabr-toqat, ota-onaga hurmat kabi qadriyatlar umumiylar tarzda ifodalandi. Shu bilan birga ayrim farqlar ham mavjud: o'zbek maqollarida ko'proq ijtimoiy hayot va xalq turmush tarzi aks etsa, turk maqollarida diniy-ma'naviy tushunchalar ko'proq seziladi.

Turk va o'zbek xalq maqollari mazmun jihatdan ko'plab o'xshashliklarga ega bo'lib, bu xalqlarning tarixiy yaqinligi, urf-odatlari va dunyoqarashida namoyon bo'ladi. Avvalo, mehnat qadri ikkala xalq donoligida ham alohida o'rinn tutadi. O'zbeklarda "Mehnat qilgan to'yar" degan hikmat mashhur bo'lsa, turklarda "Emek eden doyar" shaklida uchraydi. Ikkala maqol ham oson yo'l bilan rizq topib bo'lmasligini, halol mehnat orqali topilgan taom barakali bo'lishini ta'kidlaydi. Do'stlik mavzusida ham yaqinlik seziladi: o'zbeklarda "Yaxshi do'st yomon kunda bilinadi" maqoli mashhur, turklarda esa "Dost kara gunde belli olur" deyiladi. Bu maqollar odamni do'stning chinakamligini og'ir kunlarda sinashga undaydi. Sabr-toqat haqida esa: "Sabr qilgan daryordan o'tar" va "Sabreden dervish muradina ermis" maqollari bir xil mazmunni ifodalaydi — sabrli odam oxir-oqibat maqsadiga yetadi. Til va so'zning qadri ham ikki xalq donoligida muhim o'rinn tutadi: "Shirin so'z bilan ilon inidan chiqar" va "Tatli dil yilanı deligidenden çıkarır" maqollarida shirinso'zlikning qudrati majoziy tarzda

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

ifodalangan. Ota-onaga munosabatda ham umumiylik mavjud: “Ota-onada farzandning boshida turgan quyoshdir” va “Ana gibi yar, baba gibi diyar olmaz” hikmatlari ota-onaning beqiyos mehrini, farzand uchun jonini ham fido qilishga tayyorligini ifodalaydi. Bu maqollar insonlarni ota-onani e’zozlashga, ularning mehrini qadrlashga undaydi. Demak, ko‘rinadiki, turk va o‘zbek maqollarida mehnat, do‘stlik, sabr, shirinso‘zlik va ota-onada hurmati kabi qadriyatlar uyg‘un tarzda aks etib, ikki xalqning tarixiy yaqinligi va ma’naviy birligini yoritadi.

Har qancha o‘xshashliklar bo‘lmisin, turk va o‘zbek xalq maqollarida sezilarli farqlar ham mavjud. Bu farqlar xalqlarning tarixiy rivojlanishi, turmush tarzi va milliy urf-odatlaridan kelib chiqadi. O‘zbek xalqi asosan dehqonchilik va bog‘dorchilik bilan shug‘ullanganligi sababli ko‘plab maqollar yer, hosil, mehnat va ro‘zg‘or ishlari bilan bog‘liq. Masalan, “Yer haydasang – kuz hayda, kuz haydamasang – yuz hayda” maqoli insonni mehnat qilishga va tabiat qonuniyatlarini inobatga olishga undaydi. Turk xalqida esa chorvachilik, ko‘chmanchilik va jangovar hayot tarzi kuchli bo‘lgani uchun maqollarda ko‘proq jasorat, vatanparvarlik va safar bilan bog‘liq mazmunlar uchraydi. “At ölür meydan kalır, yiğit ölür şan kalır” maqoli turk xalqining mardlik va qahramonlikni ulug‘lash an’analarini ifodalaydi.

Shuningdek, turk maqollarida dervishlik, sufiyona tafakkur va diniy-ta’limiy qadriyatlarning ta’siri kuchli seziladi. “Kervan yolda düzülür” yoki “Komşu hakkı, Tanrı hakkı” kabi maqollar bunga yorqin misoldir. O‘zbeklarda esa “Qo‘sning tinch – sen tinch” kabi maqollar mahalla hayoti, qo‘ni-qo‘sning tinchlik va o‘zaro mehr-oqibat bilan bog‘liq qadriyatlarni ko‘rsatadi.

Yana bir muhim farq – o‘zbek maqollarida ko‘pincha oilaviy qadriyatlarga, mehr-oqibat va uy-ro‘zg‘or tinchligiga katta e’tibor qaratiladi. Masalan, “Uyda tinchlik – yurtda tinchlik” yoki “Vataning tinch – sen tinch” degan maqol oiladagi barqarorlik jamiyat osoyishtaligining garovi ekanini bildiradi. Turk maqollarida esa vatan, erkinlik va bayroq kabi mavzular kengroq o‘rin olgan. “Bayrak inmez, ezan dinmez” kabi maqollar turk xalqining mustaqillik va erkinlikka bo‘lgan intilishlarini yaqqol ifodalaydi.

Demak, turk va o‘zbek maqollarida umumiy qadriyatlar bilan bir qatorda, har bir xalqning tarixiy tajribasi, yashash tarzi va ma’naviy olamiga xos bo‘lgan jihatlar ham yorqin namoyon bo‘ladi. Bu esa maqollarni nafaqat xalq donoligining ifodasi, balki milliy o‘zlikni anglash vositasi sifatida ham muhimligini ko‘rsatadi.

Maqollar – bu nafaqat xalq donoligining mahsuli, balki millatning ruhiy olami va madaniy merosining kalitidir. Turk va o‘zbek maqollarining qiyosiy o‘rganilishi shuni ko‘rsatadiki, ular orqali ikki xalqning ruhiy yaqinligi va ma’naviy uyg‘unligi yaqqol seziladi. Har bir maqol o‘zida bir necha avlodning tajribasini, hayotga bo‘lgan qarashini va qadriyatlarni mujassamlashtiradi. Shuningdek, farqlarning mavjudligi esa xalqlarning o‘ziga xosligini, turmush tarzidagi rang-baranglikni aks ettiradi. Shu bois, maqollarni faqatgina og‘zaki ijod namunasi sifatida emas, balki tilshunoslik, madaniyatshunoslik va hatto tarbiya manbai sifatida o‘rganish lozim. Ular bugungi kunda ham yoshlarni sabr-toqat, mehnatsevarlik, do‘stlik, vatanparvarlik va ota-onaga hurmat kabi qadriyatlarga undab, hayotiy yo‘l-yo‘riq bo‘lib xizmat qilmoqda.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Mamajonov, T. (1995). O'zbek xalq og'zaki ijodi. O'qituvchi nashriyoti. Toshkent.
2. Rustamov, H. (2002). *O'zbek maqollari va hikmatlari*. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent.
3. Karimov, A. (1980). *O'zbek maqollari*. Fan nashriyoti. Toshkent.
4. Öztürk, M. (1995). *Türk Atasözleri*. Türk Dil Kurumu Yayınları. İstanbul.
5. Gözaydin, N. (2001). *Türk Atasözleri ve Deyimleri*. Kültür Bakanlığı Yayınları. Ankara.
6. Jo'raeva, S. (2012). *Qiyosiy tilshunoslik asoslari*. Universitet. Toshkent.

